

**JAMIYATDA XOTIN-QIZLARNING TAZYIQ VA ZO'RAVONLIKLARNING
JABRLANUVCHISI BO'LIB QOLISHINI OLDINI OLIH MASALALARI***Obloqulova Mohinur Rashid qizi**IIV Akademiyasi Magistraturasi**tinglovchisi leytenant*

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqola jamiyatda xotin-qizlarning huquq va erkinliklarini davlat siyosati darajasiga olib chiqqan holda ularni yuridik va amaliy jihatdan himoya qilish hamda ularning konstitutsion normalarda belgilangan huquqlarini mustahkamlash va shu bilan bir qatorda amaliyotda ularning poymol etilishini oldini olish masalalarini, chet el davlatlari huquqiy normalarning samarali faoliyatini implementatsiya qilgan holda O'zbekistonda amalga oshirilayotgan islohotlarni yanada takomillashtirish va ijrosini osonlashtirish nazarda tutilgan.

Kalit so'zlar: gender tenglik, javobgarlik, tazyiq va zo'ravonlik, himoya orderi, kamsitish, profilaktik chora-tadbirlar, tazyiq va zo'ravonlik turlari.

Hozirgi taraqqiy etib borayotgan bir davrda jamiyatimizda amalga oshirilayotgan har bir islohot, o'zgarish, avvalo, yurtimiz ravnaqi va porloq kelajagi uchun amalga oshirilayotgari hech kimga sir emas. Jamiyatni har tomonlama yuksaltirish, mukammal birlikka aylantirish oson ish emas albatta. Bu nihoyatda katta mehnat, yuksak salohiyat, o'ta kuchli matonat shu bilan birga shiddat bilan telekommunikatsion rivojlanishni talab qiladi.

Yangi O'zbekistonni o'z oldiga qo'ygan strategik maqsadlarini amalga oshirish uchun misli ko'rilmagan o'zgarishlar amalga oshirilishi va bu natijalar bilan dunyo hamjamiyatida o'zining o'rnini yanada mustahkamlashi darkor. Har bir taraqqiy etgan yoki etayotgan davlatlarning tarixiga nazar tashlansa, davlatni yuksalishiga to'sqinlik qiladigan omil va sabablar doimo bo'lgan. Mazkur omil va sabablar aksariyat hollarda davlat yoki jamiyatning eng zaif qatlamida uchray turadi. Bunday qatlamni xotin-qizlar, qariyalar, voyaga yetmaganlar, nogironlar tashkil qiladi albatta. Biz yoritmoqchi bo'lgan masalardan biri bu – xotin-qizlar bilan bog'liq. Ularning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatda o'z o'rinlarini topish va mustahkamlash maqsadida keng va har tomonlama islohotlar amalga oshirilib kelmoqda. Jamiyatda xotin-qizlarning huquqlarini himoya qilish, va ularning imkoniyatlarini keng tarmoqlararo kengaytirish jamiyatni turli sohalarida taraqqiy etishini tezlashtiradigan asosiy tamoyillardan biri sanaladi.

Xotin-qizlarga qarshi har qanday ko'rinishdagi tazyiq va zo'ravonliklarni bartaraf etish inson huquqlarini himoya qilish bilan bir qatorda jamiyatda shaxsga, uning hayoti va sog'lig'iga, jinsiy erkinligiga qarshi sodir etilayotgan jinoyatlar soni sezilarli darajada kamayishiga erishiladi. Shu o'rinda BMT ning sobiq bosh kotibi Ban Ki-moonning: "Ayollarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish, dunyo bo'ylab barqarorlik va tinchlikni saqlashning asosiy yo'lidir" degan fikri o'z tasdiq'ini topib bormoqda.

Shu jumladan, xotin-qizlarning jamiyatda ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularning qonuniy manfaatlarini to'laqonli ta'minlash, onalik va bolalikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashning samaradorligini oshirish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 14-iyundagi Qaroriga asosan, Ichki ishlar vazirligining hududiy birliklarida xotin-qizlar bilan ishlash masalalari bo'yicha inspektor lavozimi joriy etilganligi, ularga bevosita, to'g'ridan-

to'g'ri xotin-qizlarning huquqlari, erkinliklari, va qonuniy manfaatlarini himoya qilishga qaratilgan turli xil treninglar, uchrashuvlar, ko'rsatuvlar va shu kabi tadbirlar tegishli mutasaddi vazirlik va idoralar bilan birgalikda qonuniy, jismoniy, moliyaviy, ruhiy jihatdan qiyin ahvolga tushib qolgan har bir xotin-qizga yordam ko'rsatishni tashkillashtirish, ular o'rtasida huquqbuzarliklarni oldini olishga qaratilgan profilaktik chora-tadbirlarni ko'rish vazifalari yuklatilganligi bejiz emas. Shu bilan bir qatorda 2019-yil 2-sentyabr kuni O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi O'RQ-561-sonli hamda "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi Qonunlari qabul qilindi. Mazkur qonunlarga asosan tazyiq va zo'ravonlikning har qanday ko'rinishidan aziyat chekayotgan xotin-qizlarning huquq va erkinliklari davlat tomonidan qat'iy ravishda himoya qilinadigan, ularni barcha sohalarda erkaklar bilan teng ekanliklari nazoratga olindi.

Shuni alohida ta'kidlash joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2020-yil 4-yanvardagi "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qaroriga asosan tazyiq va zo'ravonliklardan aziyat chekib kelayotgan xotin-qizlarga "Himoya orderi" berish asoslari va tartibi ishlab chiqildi va amaliyotga joriy etildi. Bu qarorning ijrosi yuzasidan xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning sabab va sharoitlari, kimlar tomonidan sodir etilishi, yillar davomidagi tahlillar mutaxassislar tomonidan o'rganilib chiqildi. Mazkur tahlil natijalariga ko'ra ularni oldini olishga oid turli ko'rinishdagi profilaktik tadbirlar amalga oshirildi. Tahlillar shuni ko'rsatadiki, xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning turli ko'rinishlari 84,7 % oila turmush doirasida sodir etilgan. Qaror qabul qilingan yilning o'zidayoq salkam 15 ming aniqrog'i, 14 774 nafar ayol himoya orderi olgan.[1]

Notinch va nosog'lom turmush tarziga ega oilalardagi muhitni barqarorlashtirish maqsadida xotin-qizlar inspektori, ijtimoiy xodim, otinoyilar, oila va xotin-qizlar masalalari bo'yicha hokim o'rinbosarlari hamkorligida tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar bilan yakka tartibdagi yoki psixolog mutaxassis ishtirokidagi uning ruhiyatini sog'lomlashtirish maqsadida yakka tartibdagi profilaktik suhbatlar o'tkaziladi. Tazyiq va zo'ravonliklarning jabrlanuvchisi bo'lib qolishni oldini olish uchun umumiy va viktimologik profilaktik tadbirlar amalga oshiriladi. Jamiyatda erta turmushni oldini olish maqsadida ta'lim muassasalarida xotin-qizlar inspektorlari, psixologlar, tibbiyot xodimlari va ta'lim muassasasi ma'muriyati bilan hamkorlikda treninglar, suhbatlar kabi profilaktik ishlar amalga oshiriladi.

Xususan, xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning oldini olish nafaqat O'zbekistonda balki chet davlatlarda ham qamrovi kengayib bormoqda. Xususan, ayollarga nisbatan turli huquqbuzarliklar sodir etish, ularga ruhiy, ma'naviy hamda jismoniy ziyon yetkazishning oldini olish va huquq va erkinliklarini himoya qilish borasida Rossiya Federatsiyasi jinoyat huquqiga murojaat qiladigan bo'lsak, Rossiya Federatsiyasi jinoyat kodeksining "Uch yoshga to'lmagan bolasi bor homilador ayol yoki ayol xodimalarni ishga qabul qilishni asossiz ravishda rad etish yoki asossiz ravishda ishdan bo'shatish" deb nomlangan 145-moddasida: "Ishga qabul qilishni asossiz rad etish yoki ayolning homiladorligi sababli asossiz ravishda ishdan bo'shatilishi, shuningdek, uch yoshga to'lmagan bolalari bo'lgan ayolning ishdan asossiz ravishda ishdan bo'shatilishi, bu sabablarga ko'ra – ikki yuz ming rubl jarima yoki o'n sakkiz oygacha bo'lgan muddatga ish haqi yoki boshqa daromad yoxud uch yuz oltmish soatgacha bo'lgan muddatga majburiy ishlar bilan jazolanadi" kabi norma keltirilgan bo'lib, bundan ko'rinish turibdiki, ayollarni huquqiy manfaatlarini hamda erkinliklari qat'iy qonun normalari asosida, alohida Jinoyat kodeksi bilan himoyalangan.[2] Ayollarning erkinliklari

borasida to'xtaladigan bo'lsak, ularning hayoti, shaxsiy erkinliklari, ularning konstitutsion huquqi bo'lib, ularni har tomonlama tazyiqlardan himoyalash asosiy ahamiyat ega. Jumladan, Xitoy Xalq Respublikasining jinoyat kodeksining 236-moddasida: "Ayolga tahdid va zo'ravonlik bilan qilingan zo'rlash – 3 yildan 10 yilgacha ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. 14 yoshga yetmagan qizga nisbatan buzilgan axloqsiz xatti-harakatlar zo'rlash deb hisoblanadi va nazarda tutilgan eng qattiq jazo bilan jazolanadi. Agar ayolga nisbatan zo'rlash yoki qizga nisbatan axloqsiz xatti-harakatlar sodir etilsa, jazo 10 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish, muddatsiz ozodlikdan mahrum etish yoki o'lim jazosi bilan belgilanadi: 1) ayolni zo'rlash yoki qizga nisbatan zo'rlik bilan qilingan zo'ravonlik harakati; 2) ayollarga nisbatan takroriy zo'rlash yoki qizlarga nisbatan buzuvchi harakatlar; 3) jamoat joyida ayolni ommaviy zo'rlash; 4) 2 yoki undan ko'p sonli guruh tomonidan ayolni jinsiy zo'rlanishi; 5) jabrlanuvchiga jiddiy shikast yetkazish, o'limga yoki boshqa jiddiy oqibatlariga olib keladigan tajovuz – 10 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum etish, muddatsiz ozodlikdan mahrum etish yoki o'lim jazosi bilan belgilanadi.", va shuningdek 237-moddasida, "Ayolni o'z qadr-qimmatini kamsituvchi harakatlar qilishga majbur qilish va unga zo'ravonlik, tahdid yoki boshqa yo'llar bilan haqorat qilish usullari uchun – 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish yoki qisqa muddatli hibsga olish bilan jazolanadi. Ushbu moddaning birinchi qismida ommaviy yoki jamoat joylarida sodir etilgan jinoyat 5 yildan ortiq muddatga ozodlikdan mahrum qilish bilan jazolanadi. Bolani haqorat qilish ushbu moddaning birinchi va ikkinchi qismlarida nazarda tutilgan eng og'ir jazo bilan jazolanadi"[3] deya belgilangan bo'lib, ko'rib turganimizdek xotin-qizlarga nisbatan qilingan huquqbuzarlik harakatlariga nisbatan har ikkala davlatda ham eng og'ir jazo chorasi qo'llanilgan. Bu, albatta tenglikni buzish emas, balki gender tenglikni saqlash, ayollarni jamiyatdagi o'rnini mustahkamlash, huquqlari va shaxsiyati oyoqosti bo'lishining oldini olishda qilingan sa'y-harakatlar hisoblanadi. Bizning davlatimiz ham sekin asta shu darajaga ko'tarilmoqda ekan, bizning qonunchiligimizda ham ayollarga qilingan huquqbuzarliklarga qarshi javobgarlik choralari kuchaytirish va buni amaliyotda sodir etilgan jinoyatlar doirasida qo'llash, albatta, o'z samarasini beradi deb aytishimiz mumkin. O'zbekistonda ham ushbu masalalar doirasida turli chora-tadbirlar hamda huquqiy ta'sir etish usullari ishlab chiqilmoqda. Misol qilib aytadigan bo'lsak, "Himoya orderi" huquqi poymol bo'layotgan, oilasi yoki yon atrofdagilarning tazyiqiga uchrayotgan, jismonan va ma'nan himoyaga muhtoj xotin-qizlar uchun berilib, bu order xotin-qizlarni huquqbuzarliklardan himoya qilish, ularning erkinliklarini, qonuniy manfaatlarini ro'yobga chiqarishda katta qadam bo'ldi desak mubolag'a bo'lmaydi.[4]

Tazyiq va zo'ravonlikning turli ko'rinishlari normativ huquqiy hujjatlarda belgilanlab bo'lib, ularni tegishli ravishda jismoniy zo'ravonlik, jinsiy zo'ravonlik, iqtisodiy zo'ravonlik va ruhiy zo'ravonlik kabi turlarga bo'lishimiz mumkin. Tazyiq va zo'ravonlikka uchragan, iqtisodiy jihatdan muhtoj bo'lgan ayollarni qo'llab quvvatlash, ularni muammolarga yechim topish maqsadida "Ayollar daftari" tashkil etildi. Mazkur daftarni tashkil etish orqali xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida qator vazifalar belgilanib, tegishli tashkilotlarga ijrosi yuklatildi.[5]

Yaqinlari yoki umuman tanish bo'lmagan insonlar tomonidan tazyiq va zo'ravonliklar jabrlanuvchisiga bo'lib qolgan ayollarni jamiyatga qaytarish, ularning faolliklarini kuchaytirish maqsadida 2021-yil 19-may kun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ 5116-sonli "Zo'rlik ishlatishdan jabr ko'rgan xotin-qizlarni reabilitatsiya qilishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Qarorga asosan, tazyiq va zo'ravonlikka uchragan xotin-qizlar bilan anonim tarzda o'z joniga suiqaqd qilish holatlarini olish maqsadida shoshilinch tibbiy, psixologik, pedagogik, huquqiy yordamlar ko'rsatish, tazyiq va zo'ravonlikdan jabr ko'rgan, o'z joniga suiqaqd qilgan yoki o'z joniga qasd qilishga moyilligi bo'lgan xotin-qizlar

bilan o'zaro aloqani amalga oshirish va shoshilinch ruhiy, psixoterapevtik, huquqiy yordam ko'rsatish, maslahat berish va axborot taqdim etish uchun mo'ljallangan, 24 soat uzluksiz ishlaydigan "ishonch telefoni"ni (respublika doirasida yagona qisqa raqam) o'rnatilgan tartibda yo'lga qo'yish va uning faoliyatidan aholini ommaviy axborot vositalari orqali xabardor qilib borish, tazyiq va zo'ravonlik jabrlanuvchisiga aylangan xotin-qizlarning ijtimoiy va iqtisodiy ahvolini barqarorlashtirish kabi qator vazifalar belgilandi.

Xotin-qizlarga nisbatan sodir etilayotgan tazyiq va zo'ravonliklarning jabrlanuvchisiga aylanib qolishayotganining asosiy sabab hamda muammolari quyidagicha: xotin-qizlar o'z huquqlarini to'liq bilmasligi yoki ulardan foydalanolmasligi; xotin-qizlarni bo'ysinuvchi qilib voyaga yetkazilganligi; ta'lim olish, mehnat sohalarida xotin-qizlarga nisbatan kamsitish holatlarining mavjudligi; yaqin qarindoshlari va eri tomonidan xotin-qizlarga nisbatan asossiz rashk oqibatida; xotin-qizlarga nisbatan ikkinchi darajali deb qarovchi insonlarning salbiy xatti-harakatlari yoki fikrlari.

Mazkur muammolarni hal etish yuzasidan quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

-xotin-qizlarni huquqiy savodxonligini oshirishga oid dasturlar ishlab chiqish;

-tazyiq va zo'ravonliklarning jabrlanuvchisi bo'lib qolishni oldini olish maqsadida profilaktik chora-tadbirlarni takomillashtirish;

-ommaviy axborot vositalari orqali xotin-qizlarni hurmat qilish, ularni e'zozlashga oid turli xil kino, ko'rsatuv, tok-shoular tayyorlash;

-xotin-qizlarga nisbatan tazyiq va zo'ravonlik sodir etgan shaxslarga nisbatan jamoat nazoratini o'rnatish hamda ochiq sayyor sudlarda ham mazkur masalalarni jamoatchilik bilan tahlil qilish.

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonliklardan himoya qilish, ularning erkin hayot tarzini ta'minlash, xotin-qizlar ham jamiyatning erkaklar bilan teng huquqli a'zosini ekanligi ta'minlagan davlatning kelajagi buyuk bo'ladi. Ayollari o'qimishli davlat xalqaro qator davlatlar miqyosida alohida o'rin kasb etadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://kun.uz/uz/news/2022/03/07/2021-yilda-qariyb-40-ming-nafar-ayolga-himoya-orderi-berilgan-senat-!>

2. 4. "Уголовный кодекс Российской Федерации " ot 13.06.1996 N 63-FZ (red. ot 01.07.2021) (s izm. i dop., vstup. v silu s 22.08.2021)

3. Уголовный кодекс Китайской Народной Республики // 2016/01/11.

4. O'zbekiston Respublikasining "Xotin-qizlarni tazyiq va zo'ravonlikdan himoya qilish to'g'risida" gi O'RQ-561-son Qonuni .

5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.03.2022 yildagi 145-son "Xotin-qizlar muammolarini o'rganish va hal etish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" qarori